

ULKAN TARIXIY YUTUQLARIMIZ – KENG KO‘LAMLI ISLOHOTLARIMIZ, ODAMLARIMIZNING TAFAKKURI, DUNYOQARASHI O‘ZGARGANI SAMARASI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligi munosabati bilan turli sohalar vakillari faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlangan edi.



Toshkent shahrida 27-avgust kuni ushbu mukofotlarni topshirish marosimi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari barchani, avvalo, Mustaqillik bayrami bilan tabrikladi. Mamlakatimizda erishilayotgan natijalarning asosi, sa’y-harakatlarning mohiyati haqida alohida to‘xtaldi.

— Yangi O‘zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlarimiz qanday ulkan natijalar berayotganini barchamiz ko‘rib turibmiz. O‘tgan sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz shiddat bilan o‘shib, 115 milliard dollarga yetdi. Bugun bitta raqamni birinchi marta aytmoqchiman: Xalqaro valyuta jamg‘armasi prognoziga ko‘ra, bu yil iqtisodiyotimiz hajmi 130 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Ya’ni ilgari bunday o‘shish, bunday yuksak e’tirof hech qachon bo‘lmagan, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bunday natijalarga tadbirkorlik keng qo‘llab-quvvatlanayotgani, zamonaviy sanoat majmualari barpo etilayotgani, “yashil” va innovatsion iqtisodiyotga o‘tilib, muqobil

energiya manbalari yaratilayotgani, axborot texnologiyalari, turizm va moliyaviy texnologiyalar kabi xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanirilayotgani zamin bo‘lmoqda.

Yurtimizda zamonaviy shaharlar qad ko‘tarmoqda, qishloq va mahallalar obod bo‘lmoqda. O‘tgan sakkiz yilda aholi uchun 500 mingga yaqin kvartirali ko‘p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu mustaqillikning dastlabki 25 yiliga nisbatan to‘rt karra ko‘p. Mahalla infratuzilmasini yaxshilash, qishloqlarni, yo‘llarni obod qilish uchun 60 trillion so‘m mablag‘ sarflandi. Yoki 130 milliard dollar xorijiy sarmoya kirib keldi, 100 mingdan ortiq investitsiya loyihalari ishga tushirildi, 7 milliondan ziyod aholi daromadli bo‘ldi.

— Bunday ulkan tarixiy yutuqlarimiz — o‘z vaqtida chuqur o‘ylab olib borgan keng ko‘lamli islohotlarimiz, eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgargani samarasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Qurayotgan binolarimiz,

zamonaviy majmualar, qulay uy-joylar, maktab va bog‘chalar, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari misolida Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudrati va ulkan bunyodkorlik salohiyati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Asosiysi, qaysi sohada bo‘lmasin, har bir yutuq va natija, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

So‘nggi sakkiz yilda ijtimoiy infratuzilmaga oldingi yillarga nisbatan olti karra ko‘p mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada bog‘cha o‘rinlari 720 mingdan 2,5 millionga yetkazildi. 466 ta yangi maktab qurilib, 1 million o‘quvchi o‘rni yaratildi. Talabalar soni 279 mingdan 1,5 million nafarga oshirilib, oliy ta’limda qamrov 42 foizga olib chiqildi.

O‘tgan haftada Tadbirkorlar kuni munosabati bilan 168 nafar eng ilg‘or biznes vakillari, mirishkor dehqon va fermerlar davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangani qayd etildi.

— Bunday fidoyi yurtdoshlarimiz, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdan charchamayman. Albatta, bu bejiz emas. Yaxshi bilasiz, oldinlari asosan xomashyo eksport qilar edik. Barcha tarmoqlarni transformatsiya qilganimiz hisobiga sanoat hajmini 2017-yilgi 29 milliarddan 70 milliard dollarga yetkazdik. Agar vaqtida tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratib bermasak, bunday yutuqlarga erisha olarmidik? Yo‘q, albatta, — dedi davlatimiz rahbari.

Ta’kidlanganidek, bugun biznes vakillari iqtisodiyotimizning chinakam tayanchiga aylandi. Birgina qurilish sohasini oladigan bo‘lsak, bu yo‘nalish oldin hech qachon hozirgidek jadal rivojlanmagan. Ilgari qurilishlar faqat davlat buyurtmasi asosida bo‘lar edi. Bugun xususiy qurilish kompaniyalari soni 30 mingdan oshdi, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 6 milliard dollarga yaqinlashdi. Hozirgi kunda O‘zbekiston tom ma’nodan ulkan qurilishlar maydoniga aylandi.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida 21 milliard dollarlik qurilish ishlari amalga oshirildi. Bu 2017-yilga nisbatan uch karra ko‘p.

Bunday ulkan o‘zgarishlarni qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, elektrotexnika, mashinasozlik, farmatsevtika kabi yo‘nalishlarda ham ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda faqat sanoat bilan cheklanib qolmasdan, xizmat ko‘rsatish sohalarni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berilayotgani ta’kidlandi.

— Avvallari 500 million dollarga yetmagan turizm eksporti hozir 3 milliard dollarlik marradan oshdi. Yetti-sakkiz yil oldin AT eksporti 1 milliard dollarga yetadi, desa, bunga kim ishonardi? Eng muhimi, barcha tarmoqlarga yangi ilm, zamonaviy texnologiyalar kirib keldi. Ularda yuz minglab ish o‘rinlari va yuqori malakali kadrlar armiyasi paydo bo‘ldi. Har bir sohada Yangi O‘zbekistonning o‘z strategiyasi, tajriba maktabi shakllandi. Mamlakatimizning ana shunday yangi tarixi, yangi qiyofasini yaratishda butun xalqimiz qatori siz, azizlarning

ham munosib hissangiz bor va buning uchun barchangizga chuqur minnatdorlik bildiraman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident joylarda davlat mukofotlarini qabul qilib olayotgan vatandoshlarimizni ham tabrikladi.

Shundan so‘ng mukofotlanganlarga faxriy unvon, orden va medallar tantanali ravishda topshirildi.

— Milliy istiqlolimizning eng buyuk maqsadi insonga e’tibor, uning qadrini, mehnatini ulug‘lash, olijanob xalqimizning izzat-hurmatini joyiga qo‘yishdan iborat. Buni ushbu daqiqlarda barchamiz yanada chuqur his etmoqdamiz. O‘z mehnati bilan mana shunday qadr topish, el-yurt nazarida bo‘lishdek buyuk baxt sizlarni hech qachon tark etmasin, — dedi Prezident.

Mukofotlanganlar yuksak e’tibor uchun minnatdorlik bildirib, xalqimizga ezgu tilaklarini bayon etdi.

O‘ZA

MILLIY MUZEYGA TAMAL TOSHI QO‘YILDI, YANGI AEROPORT ESA MUHIM TRANSPORT XABIGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-avgust kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Milliy muzeyining qurilishiga start berdi hamda “Toshkent — Sharqiy” aerodromi negizida barpo etilgan yangi aeroportda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Dastlab O‘zbekiston Milliy muzeyi qurilishiga tamal toshi qo‘yildi.

Davlatimiz mustaqilligi milliy o‘zligimizni yuzaga chiqarib, ezgu sa’y-harakatlarga asos bo‘lib kelmoqda. Har yilgidek, bu galgi istiqlol bayrami ham yaxshi yangiliklarga vasila bo‘lmoqda. Shunday tarixiy voqealardan biri yangi Milliy muzeyga asos solinishidir.

Tashrif chog‘ida davlatimiz rahbariga ushbu inshoot loyihasi va xususiyatlari, qurilish bosqichlari haqida axborot berildi.

Muzey Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi shafeligida Yaponiyaning “Tadao Ando Architect & Associates” arxitektura byurosi hamda Germaniyaning “Atelier Brückner” kompaniyasi tomonidan loyihalashtirilgan. Uning tashqi qiyofasi aylana, to‘rtburchak va uchburchak shaklida bo‘lib, Sharq va G‘arb madaniyatini o‘zida uyg‘unlashtiradi. Majmua uch qavatli muzey, ikki qavatli yeto‘la hamda yordamchi binolardan iborat bo‘ladi. Xitoyning “CSCEC International Construction” kompaniyasi tomonidan quriladi.

Poytaxtimizda ushbu muzey qurilishiga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi. Shu munosabat bilan

O‘zbekiston Milliy bog‘i yaqinidagi maydonga madaniyat va san’at namoyandalari, olimlar va adiblar, nuroniyalar, jamoatchilik vakillari yig‘ildi.

— Hamma sohada rivojlanish bilan birga qadriyatlarimizni tiklashga harakat qilyapmiz. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasi, Olimpiya shaharchasi kabi ulkan inshootlar quryapmiz. Buning zamiridagi asosiy maqsad shuki, bu binolar xalqimizga mulk bo‘lib qolishi kerak. Mana endi yana bir tarixiy majmua — O‘zbekiston Milliy muzeyi qurilishini boshlayapmiz. Bu muzey uch ming yillik boy tariximizni odamlarga, dunyo hamjamiyatiga va kelajak avlodga yetkazadigan ilm-ma’rifat va madaniyat maskani bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, hozir birgina Toshkentdagi 30 ta muzeyda 1 milliondan ziyod eksponat bor. Ularning 100 mingi Davlat san’at muzeyida bo‘lib, shundan bor-yo‘g‘i 2 ming 400 tasi namoyishga qo‘yilgan. Ko‘rgazma zallari yetarli bo‘lmagani sababli 97 mingdan ziyodi omborda saqlanmoqda.

 Davomi 2-beta

KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takesi Ivaya boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Yaponiya Bosh vaziri Sigeru Isibaning samimiy salomi va O‘zbekistonning Mustaqillik kuni munosabati bilan tabriklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston — Yaponiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Faol muloqotlar davom etayotgani va amaliy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Bugun o‘tkazilgan

ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlarining Strategik muloqoti birinchi yig‘ilishining samarali natijalari yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlash ishti ro‘qda, Yaponiyaning yetakchi kompaniyalari iqtisodiyotga yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

17-avgust kuni Osaka shahrida Butunjahon “EXPO-2025” ko‘rgazmasi doirasida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Milliy kuni muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va

madaniy-gumanitar hamkorlikning aniq loyihalarini ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston — Yaponiya markazi faoliyatini kengaytirish va kelgusida uning negizida Yaponiyaning yetakchi universitetlari ishtirokida qo‘shma universitet tashkil etish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatidagi bo‘lajak sammitni o‘tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev eng aziz umummilliy bayramimiz — Vatanimiz mustaqilligi e’lon qilinganining o‘ttiz to‘rt yilligini nishonlash arafasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdig‘i sifatida **“Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmonni** imzoladi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan

jazo muddatini o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan **523** nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning **195** nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, **147** nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **87** nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, **94** nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning **8** nafarini chet el fuqarolari, **45** nafarini ayol, **31** nafarini 60 yoshdan oshgan erkak, **220**

nafarini yoshlar (shulardan **1** nafari voyaga yetmagan) hamda **15** nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘ZA



2025-yil 28-avgust, 177-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘zbekiston Respublikasi
mustaqilligining 34 yilligiga

YANGI O‘ZBEKISTON



MILLIY MUZEYGA TAMAL TOSHI QO‘YILDI, YANGI AEROPORT ESA MUHIM TRANSPORT XABIGA AYLANADI

Boshlanishi 1-betda

— Markaziy Osiyo, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Yevropa davlatlari madaniyatini o‘zida aks ettirgan bu noyob san‘at asarlari nafaqat bizning, balki butun insoniyatning beqiyos boyligi. Ularni asrab-avaylab, kelgusi avlodlar uchun beshikast yetkazish, dunyo ommasiga namoyish qilish orqali mamlakatimizning boy tarixi va madaniyatini tarannum etish barchamizning muqaddas burchimiz, — deya ta’kidladi Prezident.

Bunday mahobatli muzey yurtimiz tarixida ilk bor barpo etilmoqda. Uning umumiy maydoni 40 ming kvadrat metr bo‘ladi. Ko‘rgazma zallari, kutubxona, restavratsiya laboratoriyalari va ekspонатlarni saqlash xonalarida eng zamonaviy qulayliklar tashkil etiladi.

Bu orqali hozirda poytaxtimizning turli muzeylarida tarqoq joylashgan tarixiy ashyolar, ko‘hna va zamonaviy san‘at asarlarini yaxlit ko‘rish mumkin bo‘ladi. Umuman, muzeyda bir vaqtning o‘zida 10 mingga yaqin ekspонатni namoyish qilish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, 4 ming kvadrat metr maydonda konferensiya zallari, auditoriya va restoranlar, bolalar maydonchalari joylashadi.

Muzey ishga tushgach, atrofdagi Abulqosim madrasasi, Xalqlar do‘stligi saroyi va O‘zbekiston Milliy bog‘i bilan bir joyda yaxlit me’moriy kompozitsiyaga aylanadi. Yurtodshlarimiz va xorijiy sayyohlar tashrif buyuradigan tematik turizm maskani bo‘ladi.

Kelajakda ushbu muzey dunyoga mashhur Luvr, Metropoliten va Britaniya muzeylari bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatadi, noyob ekspонатlar olib kelinadi va ko‘rgazmalar tashkil qilinadi.

— Ishonchim komil, yangi barpo etiladigan majmua mamlakatimizning jahon tarixi va taraqqiyotida tutgan o‘rmini yanada yorqinroq ko‘rsatadi. Bir yil emas, o‘n yil emas, ko‘p yillar davomida xalqimizga xizmat qiladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev so‘zining yakunida.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari majmua poydevoriga kapsula qo‘yib, qurilishni boshlab berdi.

Kunning ikkinchi yarmida Prezident Shavkat Mirziyoyev “Toshkent — Sharqiy” aerodromi negizida barpo etilgan yangi aeroportni borib ko‘rdi.

Mamlakatimiz taraqqiy etib, xalqaro nufuzi oshgani sari dunyo bilan aloqalar faollashib bormoqda. Shu bois, transport infratuzilmasining barcha yo‘nalishlarini mutanosib rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Ana shunday strategik loyihalardan biri — “Toshkent — Sharqiy” aerodromi negizidagi biznes aviasiyasi majmuasidir. Uning qurilishi 2017-yilda boshlangan edi. Pandemiya va undan keyingi qiyinchiliklardan o‘tib, nihoyat ulkan inshoot qurib bitkazildi.

Aeroportning umumiy maydoni 561 gektardan iborat. 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qo‘nish yo‘lagi va 3 ta harakatlanish yo‘li yangilanib, eng og‘ir samolyotlarni ham qabul qilish quvvatiga ega bo‘ldi. 20 ta “havo kemasi”ga mo‘ljallangan peron barpo etildi. “Boeing 787”, “A 320” kabi samolyotlar, biznes-jetlar hamda vertolyotlar ham angarlari qurildi. Bu ularning qishida ilmi, yozda salqin saqlanishi va xavfsizligini ta‘minlaydi.

Aeroportda VIP va CIP terminallar bunyod etilgan. Oliy martabali mehmonlar zalida rasmiy kutib olish, muzokaralar va brifing o‘tkazish uchun barcha sharoit yaratilgan. Soatiga 100 nafar yo‘lovchini qabul qilish quvvatiga ega CIP terminalida do‘kon va ovqatlanish joylari bo‘ladi.

Muhimi, aeroport ICAO III-A toifasidagi ilg‘or radiotexnika va meteorologiya uskunalari bilan jihozlanadi. Bu noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish va qo‘nish imkonini beradi.

Yangi aeroport qulay joylashuvi tufayli poytaxt va Yangi Toshkent shahri uchun muhim transport xabiga aylanadi. Xalqaro tashriflari va ishbilanmonlik safarlarini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, xorijiy investorlar uchun sharoitlar yaxshilanadi. Natijada iqtisodiy aloqalar va xizmat ko‘rsatish sohasi yanada rivojlanib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Davlatimiz rahbari shu yerda jamoat faollari, nuroniylar bilan suhbatlashdi.

— Ko‘p yil tayyorgarlik qilib, mana shunday yangi aeroport quridik. Bu ham davlatchilikning yana bir zamini. Bu yerda yurtimizga keladigan mehmonlar va samolyotlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatiladi. Natijada Toshkent xalqaro aeroportiga yuklama yengillashadi. Xudo xohlasa, u aeroport uchun ham boshqa joyda ulkan majmua qurishni rejalashtirganimiz. Umuman, hamma hududlarimizda katta-katta loyihalarni boshlaganimiz. Ilohim, tinchligimizga ko‘z tegmasin, yangi inshootlar, farovonlik xalqimizga buyursin, — dedi Prezident.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
O‘ZA muxbirlari**

DUO OLSAM, BAKTIYORMAN

**Xoliyor AXMEDOV,
Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy
markazi Jizzax filiali
1-son jarrohlik bo‘limi
shifokor-jarrohi**

Mehnat ta‘tilida chet elda sayohatda edim. 23-avgust kuni kechqurun mehmonxonaga kelib, telegramni ochsam, qarindoshlar, kasbdoshlar, shogirdlarim “Mukofot muborak!”, “Orden muborak!” deb tabriklabdi. To‘g‘risi, juda ham xursand bo‘ldim. Ayniqsa, chet elda vatanni, oilangizni sog‘ingan paytingizda mana shunday xushxabar eshitishning nafari boshqacha ekan. Lekin tabriklaganlarning birortasi orden nomini yozmabdi.



Dil izhori

Tabriklarga ham javob yozmasdan, qanday orden bilan taqdirlanganimga qiziqdim. Zudlik bilan o‘zim kuzatib boradigan yuz.uz saytiga kirib, Prezidentimiz farmoni bilan to‘liq tanishdim. II darajali “Salomatlik” ordeni bilan taqdirlanibman. Ko‘zimdagi quvonch ko‘z yoshlarini artib, farmonning o‘zimga tegishli joyini qayta-qayta o‘qidim. Tanlagan kasbimdan, odamlarga nafim tegayotganidan, bu boradagi kamtarona mehnatlarim e‘tirofga sazovor bo‘lganidan quvondim.

Shu o‘rinda qayd etish zarurki, mamlakatimizda aholiga sifatli, zamonaviy tibbiy yordam ko‘rsatish, sohani tubdan isloh qilish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tibbiyot sohasiga jahon standartlari asosida yondashilaypti.

Jizzax viloyatida ham bu yo‘nalishda katta o‘zgarishlarga guvoh bo‘laypmiz. Bir vaqtlar faqat poytaxtda amalga oshirilgan murakkab jarrohlik amaliyotlari bugun viloyat markazi va hatto ayrim tuman markazlarida ham muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Masalan, Jizzaxda buyrak ko‘z chirish kabi yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari mahalliy mutaxassislar tomonidan bajarila boshlandi. Bu esa nafaqat bemorlar, balki ularning yaqinlari uchun ham katta qulaylik yaratmoqda.

Shu bilan birga, davlat tibbiy sug‘urta tizimining joriy etilishi, Turkiya modeli asosida tashkil etilayotgan yangicha yondashuvlar aholiga zamonaviy, shaffof va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish kafolati bo‘lmoqda.

Joriy etilayotgan yangi tizim bo‘yicha maxsus sertifikatga ega bo‘lib, bilim va ko‘nikmalarini namoyon etgan oilaviy shifokorlarga 20 million, hamshiralarga 12 million so‘mgacha oylik olish imkoniyati yaratildi. Bu tibbiyot xodimlari uchun juda katta imkoniyat.

Ushbu tizim yaqindan boshlab G‘allaorol tumanida ham joriy etila boshladi. Agar oldinlari, shifokorlarni majburlab chekka qishloqlardagi oilaviy poliklinikalarga ishga yuborishgan bo‘lsa, endilikda tuman va viloyat markazlarida ishlayotgan shifokorlar chekka joylarga borib ishlashga harakat qilmoqda. Bu ham yangi tizimning afzalliklaridan biri hisoblanadi. Muhimi, tibbiyot tizimidagi islohotlar xalqimiz taqdirida ham namoyon bo‘layotir. Hatto eng murakkab jarrohlik amaliyotlari ham davlat tibbiy

sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan aholi uchun bepul amalga oshirilmoqda.

Yoki o‘zim mehnat qilayotgan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filiali misolida aytadigan bo‘lsam, shoshilinch tibbiy yordam tizimidagi o‘zgarishlar har bir fuqaroning hayotini asrash, unga tez, samarali va aniq tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatini yaratmoqda.

2022-yili respublikamizda birinchilardan bo‘lib, markazimizning qabul-diagnostika bo‘limida “Emergency department” tizimi asosida qo‘shimcha “shok” palatasi — “qizil” zona, kuzatuv palatasi — “sariq” zona va mutaxassislar ko‘rigi xonalari — “yashil” zonalar tashkil etildi. Bu og‘ir kasallarni to‘g‘ridan to‘g‘ri “qizil” zona — shok palatasiga, mutaxassislar ko‘rigiga kelganlar “yashil” zonaga, shifokorlar kuzatuvdagi “sariq” zonaga yo‘naltiriladi degani. O‘tgan yili esa eng so‘nggi rusumdagi qimmatbaho angiografiya apparati o‘rnatildi. Ushbu tibbiy apparat yurak koronar qon tomiri bilan bog‘liq muammosi bor, tez tibbiy yordamga muhtoj bemorlarning koronar qon tomiri, yuqur arteriyalari va son arteriyalarida koronarografiya tekshiruvlarini o‘tkazish, tez tibbiy yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan bemorlarning yurak-qon tomir sohasiga yuqori texnologik stent qo‘yish amaliyotlarini o‘tkazish imkonini beradi. Bunday sharoit va imkoniyatlar sababli endi bemorlar shifo izlab Toshkent, Samarqand yoki xorijga borishlariga hojat qolmaydi.

Bundan tashqari, 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida viloyatimiz shoshilinch tibbiy yordam tizimida 34 turdagi yangi diagnostik usullar joriy etildi. Bu, o‘z navbatida, murakkab jarrohlik amaliyotlarini mahalliy darajada amalga oshirish imkonini berdi. Joriy yilning o‘tgan davrida ikki mingga yaqin jarrohlik amaliyoti bajarildi, shundan qariyb mingtasi yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari hisoblanadi.

Kasbimdan faxrlanaman. Kasbim orqali obro‘e‘tibor topdim, xalqimizning duosini, davlatimizning mana shunday yuksak mukofotlarini olishga erishdim. Har safar biror bemorning tuzalishiga sababchi bo‘lsam, ularning yoki qarindoshlarining duolarini olsam, o‘zimni juda ham yengil va baxtiyor his qilaman.

Ushbu mukofotga sazovor bo‘lish katta baxt, sharaf ekanligi bilan birga yuksak mas‘uliyat ham borligini his qilayman. Bundan keyin ham bor bilim, tajriba va mahoratimni ishga solib, xalqimizning salomatligini muhofaza qilishdek sharaflı vazifamni munosib tarzda ado etishga safarbar etaman.

SIYOSAT



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘zbekiston Respublikasi
mustaqilligining 34 yilligiga

OLIY HAQIQATGA AYLANGAN TAMOYIL

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili shunchaki shior emas, xalq hayotiga aylangan haqiqatdir. Chunki inson umrining har bir bosqichida davlat uning yonida bo‘lmoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimizda insonni qadrlash, huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat siyosati darajasiga chiqdi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab bu jarayon yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, Harakatlar strategiyasi, Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya, Taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi kabi hujjatlarda insonni qadrlashga qaratilgan maqsad va rejalarni belgilandi. Shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlash, oilani mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar kuchga kirdi. Ushbu dasturiy hujjatlarda xalq uchun juda ko‘plab huquqiy asoslar, imkoniyatlar belgilandi. Bugun ularning ijrosi amalda ta‘minlanmoqda.

Qolaversa, umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e‘lon qildi. Bu esa har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun davlatning kafolati mas‘uliyatini belgilab berdi.

Ijtimoiy davlat — inson manfaati ustuvor qo‘yiladigan, aholiga ta‘lim va tibbiyotda teng imkoniyatlar yaratiladigan, kam ta‘minlangan va himoyaga muhtoj qatlam doimiy qo‘llab-quvvatlanadigan jamiyat demak. Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda inson huquqlari va erkinliklarining himoyasiga oid qator qo‘shimcha kafolatlar kiritildi, davlat organlarining fuqarolar oldidagi javobgarligi yanada kuchaytirildi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzurida faoliyat yuritayotgan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari aholining eng himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga manzilli ko‘mak berish bo‘yicha izchil ishlamoqda. Bu markazlar orqali ehtiyojdan oilalarning muammolari joyida o‘rganilib, ularga moddiy, huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatilyapti. Eng muhimi, bu tizim orqali hech bir fuqaro o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolmaydi.

Jamiyatimizda hali ham zo‘ravonlikka uchrayotgan bolalar va xotin-qizlar bor. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun himoya mexanizmlari izchil kuchaytirilmoqda. Chunki inson huquqlarini ta‘minlash — bir martalik emas, balki davomli jarayon. Zamon o‘zgarishi bilan turli tahdid va xavflar yuzaga kelishi mumkin, lekin davlat har doim o‘z fuqarolarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish pozitsiyasida turadi. Shu maqsadda bolalar va xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha qonun hujjatlari takomillashtirildi, ma‘muriy va jinoyi javobgarlik choralari kuchaytirildi. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar endi qiyinlash va topatlashni emas, balki xavfsiz va erkin hayotni tanlamoqda.

Ayolga davlat tomonidan ma‘naviy, ruhiy va moddiy yordam ko‘rsatiladi, kasbga o‘qitiladi, ishga joylashuviga ko‘maklashiladi. Agar uy-joy olish istagi bo‘lsa, subsidiya ajratilishi ham mumkin. Bu — ayolni qurbon sifatida emas, erkin va mustaqil shaxs sifatida qo‘llab-quvvatlashning amaliy ko‘rinishidir.

“Insonni qadrlash faqat zo‘ravonlikdan himoya qilish yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmaydi. Bu qadriyatning yana bir muhim ustuni — ta‘lim. Chunki inson uchun haqiqiy imkoniyat uning bilimi va savodidadir. Shu maqsadda oliy ta‘limga kirish tizimi tubdan yangilandi.

Avval abituriyent faqat bitta oliy ta‘lim muassasasiga hujjat topshirishi mumkin edi. Endi esa bir vaqtning o‘zida beshita universitetni tanlash imkoniyati mavjud. Yaqindagi o‘zgarishlarga ko‘ra, beshita imkoniyatdan ham foydalana olmagani abituriyentlarga yana imkoniyat berilmoqda. Qabul jarayoni tubdan shaffoflandi, o‘qitish tizimi korrupsiyadan xoli bo‘ldi. Bugun faqat o‘quvchi va talabadorlarni emas, balki o‘qituvchilardan ham yuksak saviya talab etilmoqda. Ular uchun malaka oshirishning tizimli dasturlari yaratilyapti.

Qisqasi, bugun yoshlar qobiliyati va bilimi bilan o‘z kelajagini qurish imkoniyatiga ega. Ushbu sharoitdan foydalanayotganlar qatorida 2025-yil avgustida o‘zbekistonlik 2000 ga yaqin yosh bir vaqtda shuncha robot yasab, Ginnes rekordini yangiladi. Bu yorqin natija ta‘lim tizimidagi to‘g‘ri tanlangan islohotlar mevasidir.

Ekologiya masalasi bugun dunyodagi eng katta xavotirli muammolardan biri. Atmosfera ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv va yer resurslarining kamayishi insoniyat oldida turgan global tahdidlardir. Shu bois, BMT Bosh Assambleyasi doimiy ravishda barqaror rivojlanish maqsadlari orqali tabiatni muhofaza qilishga chaqirmoqda. Ko‘plab rivojlangan davlatlar

qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirmoqda.

Afsuski, bu muammolarning salbiy ta‘siri O‘zbekistonda ham sezila boshladi. Ayniqsa, havoning ifloslanishi aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Chunki inson hayoti va faoliyatining asosiy sharti — sog‘lom muhit va toza havo. Sog‘lom avlod, barqaror iqtisodiyot va farovon jamiyatning poydevori ham ana shu toza havo, sof tabiatda mujassam.

Yurtimizda 2025-yilning Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e‘lon qilinishi bejiz emas. Bu yilgi dasturlar orqali shahar va qishloqlarimiz obod bo‘lmoqda, “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida millionlab daraxt ko‘chati ekilib, havo tozaligini ta‘minlash uchun zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Yirik korxona va zavodlar chiqindilari, qurilish ishlari va havo ifloslanishining boshqa asosiy manbalariga nisbatan qat‘iy talablar joriy qilinaypti.

Mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi farovonligi oshishi va inson kapitalining o‘sishi inson huquqlarining ishonchli va samarali himoya qilinishi bilan chambarchas bog‘liq. Binobarin, inson huquqlari buzilgani to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish, qonun hujjatlari va amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy xabardorligini oshirishda Ombudsman instituti mustahkam o‘ringa ega.

Murojaatlar soni ortib borayotgani bunga yaqqol misoldir. 2024-yilda Ombudsmannga 23 mingga ortiq murojaat kelib tushdi. Murojaatlarning tahlili

“Ayolga davlat tomonidan ma‘naviy, ruhiy va moddiy yordam ko‘rsatiladi, kasbga o‘qitiladi, ishga joylashuviga ko‘maklashiladi. Agar uy-joy olish istagi bo‘lsa, subsidiya ajratilishi ham mumkin. Bu — ayolni qurbon sifatida emas, erkin va mustaqil shaxs sifatida qo‘llab-quvvatlashning amaliy ko‘rinishidir.

va joylarda o‘tkazilgan o‘rganishlar asosida davlat organlari va sudlarga taqdimnoma, xulosa va da‘vo arizalari kiritildi. Eng muhimi, ularning aksariyati ijobiy yechim topdi.

Shuningdek, qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha monitoring tashriflari yil sayin ko‘paymoqda. 2022-yilda 381 ta, 2023-yilda 603 ta, 2024-yilda esa 902 ta tashrif amalga oshirildi. Bu esa nazoratning kuchaygani, tizimning ochiqlik va hisobdorlikka ehtiyoj oshib borayotganini anglatadi. Monitoringlarda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ham ishtirok etib, jarayonning shaffofligini ta‘minlamoqda.

Prezidentimiz qarori asosida yopiq muassasalarga monitoring tashriflari yakunida jamoatchilik bergan tavsiyalar asosida 2024-yilda 23-mahkumlar uchun itxisloslashtirilgan shifoxona negizida 50 o‘rinli ayollar bo‘linmasi ochildi. Qoraqalpog‘istondagi eskirgan narkologiya dispanseri qulay binoga ko‘chirildi, Ellikqal‘adagi ruhiy-asab kasalliklari dispanseri ta‘mirlanib, psixoterapiya xonasi tashkil etildi. Bir qator viloyatlardagi vaqtincha saqlash va tergov hibxonalari ta‘mirlanib, uzoq muddatli uchrashuv xonalari qurildi. Natijada mahkum va mahbuslar uchun insonparvar sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, 2025-yilda kiritilgan taqdimnomalar asosida Buxorodagi “Muruvvat” uyini ta‘mirlash uchun 176 million so‘m, Respublika ruhiy kasalliklar shifoxonasini ta‘mirlash uchun esa 1,67 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Xo‘jayli va boshqa tumanlardagi hushyorxonalar ta‘mirlandi, mahkumlarining mehnat qilish va yashash sharoiti yaxshilandi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Monitoringlardan so‘ng aniqlangan kamchiliklar yuzasidan 2024-yilda 56 xodimga intizomiy chora qo‘llandi, ayrimlar jarimaga tortildi yoki ishdan bo‘shatildi. Bu esa nazorat va javobgarlikning amalda ishlayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalardagi sharoitlarni hozirgi va 5 yil avvalgi holat bilan solishtirsak, juda katta o‘zgarishlarga guvoh bo‘lamiz. Bu natijalar zamirida yurtimizda yuritilayotgan “inson qadri uchun” siyosati turibdi. Chunki inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash davlat va jamiyatning eng oliy maqsadidir.

Mamlakatimizda mahkum va mahbuslar huquqlarini xalqaro standartlarga mos holda ta‘minlash borasida qator qonunchilik islohotlari amalga oshirildi. 2019-yildan boshlab BMT Bosh

Assambleyasi rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan “Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standartlari qoidalari” milliy qonunchilimizga implementatsiya etildi. Unga ko‘ra, mahkumlarga psixologik yordam olish huquqi berildi, og‘ir kasallikka chalinganlar uchun qo‘shimcha telefon so‘zlashuvi va yaqinlari bilan uchrashish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, ruhiy holati buzilgan vaqtda sodir etilgan tartibbuzarlik uchun intizomiy jazo choralari qo‘llanishi bekor qilindi.

“2019-yildan mahkumlarning ish haqidani ijtimoiy sug‘urta ajratilmasligi belgilanib, ularning pensiya ta‘minoti kafolatlandi. Yopiq koloniyalarda telefon so‘zlashuvi va uchrashuvlar soni ikki barobar ko‘paytirildi. 2023-yilda esa Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, mahkumlarning ish staji umumiy mehnat stajiga qo‘shilishi belgilandi, ularga surdutarjimon xizmatidan foydalanish huquqi berildi. I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yashash maydoni kengaytirildi va turli vositalar bilan jihozlash majburiyati belgilandi.

Bundan tashqari, mahkumlarni jinsi, yoshi, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va ixtisosligiga qarab ishga joylashtirish tartibi joriy etilgani mamlakatimizda insonparvarlik tamoyilining amaldagi yorqin ifodasidir.

O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida o‘z fuqarolariga munosib turmush sharoitini yaratish barobarida falastinlik mehmonlarga ham yangi hayot boshlash uchun zarur imkoniyatlarni bermoqda. Prezidentimiz farmoni asosida ular uy-joy, ijtimoiy nafaqa, ta‘lim va tibbiy xizmat bilan ta‘minlanmoqda. Keksas yoshdagi fuqarolarga nafaqa tayinlanadi,

mehnatga layoqatli lari esa kasb-hunarga o‘qitilib, tadbirkorlik dasturlariga jalb etiladi. Og‘ir kasallikka chalingan mehmonlarga nogironlikni darhol belgilash mexanizmi joriy etilishi esa ularning bir kun ham ijtimoiy himoyadan mahrum qolmasligi uchun muhim qadam bo‘ldi. Bu chora-tadbirlar ular uchun nafaqat boshpana, balki tinch va xavfsiz yangi hayot boshlash imkoniyatini ham yaratdi.

O‘zbekistonning inson huquqlarini ta‘minlash yo‘lidagi qat‘iy qadamlari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda. 2024-yilda yurtimizga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham davlatimiz o‘z fuqarolarining huquq va manfaatlarini ta‘minlash borasida sobitqadamlilik bilan ilgariylayotganini alohida e‘tirof etdi.

Shuningdek, joriy yilda xalqaro anjumanlarga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari ham yurtimizdagi islohotlarni yuqori baholadi. Avstraliya, Ozarbayjon, Vengriya, Italiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Marokash, Mo‘g‘uliston, Norvegiya, Pokiston, Rossiya, Serbiya, Tailand, Turkiya, Tojikiston kabi davlatlar ombudsmanlari, shuningdek, Xalqaro ombudsman instituti, Yevropa ombudsman instituti va Osiyo ombudsmanlar assotsiatsiyasi vakillari O‘zbekiston xalqaro inson huquqlariga oid 80 dan ortiq hujjatni milliy qonunchiligiga implementatsiya qilganini alohida e‘tirof etdi.

Xalqaro ekspertlar fikricha, O‘zbekistonda so‘nggi 6-7 yilda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning eng muhim jihati inson huquqlarini ta‘minlash borasidagi qat‘iy sa‘y-harakatlardir. Konstitutsiyaviy islohotlardan tortib, ijtimoiy himoya, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, qonun ustuvorligi va gender tenglikka qaratilgan chora-tadbirlar xalqaro hamjamiyatda yuksak qiziqish va qo‘llab-quvvatlov bilan kuzatilmoqda.

Umuman olganda, xalqaro nufuz va yurtimizdagi islohotlar uyg‘unligi mustaqilligimizning 34 yilligi arafasida O‘zbekiston “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotning eng oliy haqiqatiga aylantirganini ko‘rsatadi. Bu esa yangi O‘zbekistonning eng katta yutug‘i va kelajak avlodga qoldirilayotgan bebaho merosidir.

**Feruza ESHMATOVA,
Oliy Majlisning Inson huquqlari
bo‘yicha vakili
(ombudsman)**

Munosabat

TADBIRKORLAR –
IQTISODIYOT POSBONLARI



Olimjon O'SAROV,
mudofaa vazirining
vatanparvarlik
targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy
ishlar hamda yoshlar masalalari
bo'yicha maslahatchisi

Yaqinda Prezidentimiz tadbirkorlarni kasb bayrami hamda mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi bilan qutlar ekan, har bir soha, hudud va mahalladagi islohotlar hamda o'zgarishlarda tadbirkorlarning ham salmoqli hisssasi borligini alohida ta'kidladi. Milliy istiqlol bayrami bilan tadbirkorlar kasb bayramining uyg'un kelishi ham bejiz emas. Chunki bugungi tadbirkor yangi O'zbekiston qudrati va taraqqiyotining tayanchidir.

Mustaqillik faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy jihatdan ham hech kimga qaram bo'lmaslik. Iqtisodiy mustaqillik, avvalo, tadbirkorlarning tashabbusi, mehnati va jasorati tufayli yuzaga chiqadi. Shu bois, yurtimizdagi har bir islohotda, har bir hudud va mahalladagi yangilanishlar zamirida tadbirkor tafakkuri va mehnati mujassam.

Hech shubhasiz, tadbirkorlik mamlakatimiz taraqqiyotining mustahkam iqtisodiy poydevoriga aylandi. Bugun soha vakillari qishloq xo'jaligidan tortib, sanoat va xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan barcha jabhada yangi ish o'rinlarini ochmoqda, milliy mahsulotlarimizga qo'shilgan qiymatni oshirmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir mahalladagi o'zgarishlar — obod manzaralar, yangi infratuzilmalar, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, ta'lim va madaniy markazlar barpo etilishida tadbirkorlarning fidokorona mehnati namoyon bo'lmoqda.

Qurolli Kuchlar yurtimiz mustaqilligini himoya qilib, tinch va osuda hayotimizni ta'minlasa, tadbirkorlar bunyodkorlik faoliyati orqali mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlaydi. Shu ma'noda, tadbirkorlarni yangi O'zbekistonning iqtisodiy posbonlari deb to'la ishonch bilan aytish mumkin.

Vatan himoyasi faqat harbiy xizmatchi zimmasidagi burch emas. Mustaqil davlatning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va porloq kelajagi tadbirkorning mehnati, tashabbusi va jasorati bilan ham uzviy bog'liq. Chunki tadbirkor ishlab chiqaradi — yurt iqtisodiyoti to'yinadi, tadbirkor ish o'rinlari ochadi —



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

minglab oilalarning rizqi butun bo'ladi, tadbirkor oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi — xalq xotirjam yashaydi.

Iqtisodiy qudrat — harbiy qudratning tayanchi. Ishlab chiqarish ko'paysa, iqtisodiyot yuksalsa, armiyaning ta'minoti butun, qurolli kuchli bo'ladi. Demak, tadbirkorning har bir tashabbusi nafaqat bozor, balki mamlakat mudofaa salohiyati uchun ham xizmat qiladi. Zero, tadbirkorlik va milliy mudofaa bir-biridan ayrilmas tushunchalardir.

Tarix ham bu haqiqatni tasdiqlaydi. Sohbiqiron Amir Temur aytganidek, "Qo'shini qudratli davlat — boy bo'lur, boy davlatning qo'shini qudratli bo'lur". Bu so'zlar o'zidan necha asrlar o'tsa-da, o'z qiymatini yo'qotgan yo'q. Chunki iqtisodiy qudratsiz harbiy qudrat bo'lmaydi, harbiy qudratsiz esa mustaqil davlat uzoq yashay olmaydi.

Tarix va tajriba bir haqiqatni qayta-qayta isbotlab keltirmoqda: har qanday davlatning harbiy qudrati iqtisodiy poydevorga tayanadi. Korxonalar ko'payadi — iqtisodiyot yuksaladi, sanoat rivojlanadi — armiya qudrat topadi, qishloq xo'jaligi barqaror bo'ladi — yurtning xavfsizligi mustahkamlanadi. Milliy iqtisodiyot nafaqat xalq farovonligi, balki milliy xavfsizlikning ham eng ishonchli kafolatidir.

Har bir tadbirkorning tashabbusi — yangi ishlab chiqarish, yangi texnologiya, yangi

mumkin, tadbirkorning har bir tashabbusi, ishga tikkan sarmoyasining har bir so'mi — yurt mudofaasiga qo'shilgan hissa. Shu ma'noda, tadbirkorlik — iqtisodiy vatanparvarlikning eng oliy ifodasi!

Prezidentimizning 2021-yildan buyon har yili 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot qilishi an'anaga aylangan muhim ahamiyatga ega. Bu uchrashuvlarda tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalar atroflicha muhokama etiladi, ishbiarmonlarning fikr va takliflari asosida muhim qarorlar qabul qilinadi. Shu kunga qadar ochiq muloqotlarda bildirilgan minglab taklif va tashabbuslar qonun hamda qarorlarda o'z ifodasini topgani buning yaqqol dalilidir.

An'anaga muvofiq, joriy yil 20-avgust kuni davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi va bir guruh fidoyi ishbiarmonlarga davlatimizning yuksak mukofotlarini topshirdi.

Kutilganidek, mazkur muloqotda ham Prezidentimiz tadbirkorlar va iqtisodiy soha vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni chuqur o'rganish asosida ishlab chiqilgan, ularning faoliyatiga yanada keng imkoniyat va qulayliklar yaratishga qaratilgan qator yangi yechimlarni ilgari surdi.

Bugun yurtimiz mudofaa tizimida xususiy sektor ishtiroki kun sayin kengaymoqda. Qishloq xo'jaligi tadbirkorlari armiyaga sifatli va sarmahsul oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib bermoqda. Mudofaa sanoatida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar armiyani zamonaviy jihozlar, texnika ehtiyot qismlari va maxsus kiyim-kechak bilan ta'minlayapti. Axborot texnologiyalari sohasidagi tadbirkorlar milliy armiya uchun intellektual dasturlar, dronlar va sun'iy intellekt yechimlarini ishlab chiqishga hissa qo'shmoqda.

Shuningdek, xususiy sektor armiyaning tezkor harakatlanishi va uzluksiz ta'minoti uchun zarur zamonaviy infratuzilmalarni barpo etishda ham muhim ahamiyatga ega. Demak, tadbirkor faqat iqtisodchi yoki investor emas, balki yurt ravnaqining poydevori, milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, ayni paytda Vatan himoyachisi hamdir.

Kimki yangi-yangi korxonalar ochsa, odamlar uchun ish o'ini va daromad manbai yaratasa, ichki bozorni milliy mahsulotlar bilan to'ldirsa, dunyo bozoriga eksport qilib, valyuta tushumi oshishiga hissa qo'shsa, soliq to'lab davlat g'aznasini to'ldirsa, haqiqiy vatanparvar bo'ladi.

Oxirgi yillardagi salmoqli yutuqlar — yurtimizda zavod va fabrikalar ishga tushirilishi, "Made in Uzbekistan" yorlig'i ostida dunyo bozorlariga chiqishimiz, milliy eksport hajmi oshib borishi — bularning barchasi tadbirkorlik ruhi kuchayganidan dalolat. Prezidentimiz bejiz ta'kidlamadi: "Biz katta marralarga faqat tadbirkorlik ruhi bilan yetishimiz mumkin".

Shu bois, tadbirkorlik — oddiy iqtisodiy jarayon emas, balki milliy taraqqiyotning g'oyaviy asosiga aylanmoqda. Bu bizga Prezidentimiz ilgari surgan ulug' haqiqatni eslatadi: "Yangi O'zbekiston — kuchli iqtisodiyot va kuchli ma'naviyat uyg'unligidadir!"

Chunki bugun dunyo ham iqtisodiy, ham geosiyosiy raqobat maydoni. Bu maydonda g'alaba qozonish uchun esa yangi zamon qahramonlari kerak. Va bu qahramonlar — tadbirkorlar! Ular qurgan zavodlar, amalga oshirayotgan ulug'vor loyihalar, qishloq va shaharlarda yaratilgan yuz minglab ish o'rinlari xalqimiz farovonligi iqtisodiy, mamlakatimiz nufuzi yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Ular har bir yutug'i — xalqimizning g'alabasi.

Ular har bir tashabbusi — yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi yangi qadam. Shu bois, baralla ayta olamiz: tadbirkorlik — bu iqtisodiy vatanparvarlik!

Tadbirkorlik — bu yurtga sodiqlik va millatga xizmat qilishning eng oliy ifodasi!



Kamoliddin ESHONXO'JAYEV,
O'zbekiston nodavlat
notijorat tashkilotlari
milliy assotsiatsiyasi
kengashi raisi

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Unda davlat grantlari, ijtimoiy buyurtma va subsidiyalarni taqsimlashning shaffof tizimini yaratish, NNTlarni qo'llab-quvvatlashning demokratik mexanizmlarini yanada rivojlantirish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida shu yil 21-avgustda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada erkin va samarali yo'lga qo'yish, ularning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash hamda davlat organlari bilan ochiq muloqotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qonunga binoan 10 dan ortiq qonunchilik hujjatiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular orasida, ayniqsa, NNTlar faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlaydigan, faoliyatiga yengillik yaratadigan, davlat organlari mas'uliyatini oshiradigan, shu bilan birga, jamoatchilik nazorati ta'sirchanligini kuchaytiradigan normalar alohida ahamiyatlidir.

Fuqarolik jamiyati — xalqning erki, faolligi va tashabbusi asosida rivojlanadigan tizim. Yangi qonun Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy davomi bo'lib, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, demokratik qadriyatlarini mustahkamlash, NNTlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Davlat organlari aralashuviga chek qo'yildi

NNTlar mustaqil va erkin tashkilot sifatida o'z tashabbuslarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Lekin amaliyotda davlat organlari va ayrim mansabdor shaxslar tomonidan asossiz aralashuv holatlari kuzatilgan. Shundan kelib chiqib, yangi qonunga aralashuvlarga nisbatan aniq chekllovlar kiritildi.

Endi davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan NNTlar faoliyatiga asossiz aralashish qonun bilan taqiqlanadi. Agar bunday holat aniqlansa, javobgarlarga bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravaridan 10 baravarigacha jarima qo'llanadi. Agar bu hol yana takrorlansa, jarima 15 baravargacha oshiriladi.

Bu norma NNTlar mustaqilligini kafolatlaydi, mansabdor shaxslarning bosim o'tkazish holatlarini keskin kamaytiradi va erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratadi.

Ijtimoiy sheriklik: shaffof va ishonchli hamkorlik

Eng katta yangiliklardan biri — "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunga ham muhim o'zgartirishlar kiritildi. Endi Oliy Majlis huzurida Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda uning

O'zbekistonda demokratik islohotlar izchil davom etmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar bajarildi. Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) faoliyati uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida ulkan qadamlar tashlandi.

Endi nodavlat tashkilotlarning ro'yxatdan o'tmay faoliyat yuritishi uchun belgilangan jazo miqdori sezilarli darajada kamaytirildi. Ilgari BHMning 30 baravariga teng bo'lgan jarima 25 baravarigacha tushirildi. Shuningdek, ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi yanada soddalashtirildi.

Hozir yurtimizda 10 mingga yaqin NNT bo'lsa, bu norma hayotga tatbiq etilishi bilan ular soni yanada ortadi, tashabbuskor fuqarolar safi kengayadi. Bu jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytiradi va turli ijtimoiy muammolarni hal etishga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tashqi manbalardan mablag' olishda ochiqlik va ishonchli muhit yaratildi

Xalqaro grantlar va xayriya mablag'lari NNTlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ilgari bu jarayonda ortiqcha byurokратиya va uzoq muddat talab etilar edi. Yangi qonun esa ana shu to'siqlarni bartaraf etib, jarayonni soddalashtirdi va eng asosiysi, ochiqlik hamda shaffoflikni ta'minladi.

Endi mablag' olish uchun murojaat muddati qisqartirildi. Hisobot tizimi esa aniq va qulay tartibga solindi. Bu esa mablag'ni samarali va oshkora yo'naltirishga zamin



yaratib, fuqarolar va jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytiradi. Eng muhimi, yangi tartib o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlab, NNTlar faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Xayriya va homiylik — aniq qoidalar, oshkora mexanizm

Xayriya ishlari jamiyatda hamjihatlik va mehr-shafqat madaniyatini shakllantiruvchi vositadir. So'nggi yillarda mazkur sohani isloh qilishga ham katta e'tibor qaratilyapti. Homiylik, metsenatlik faoliyatini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Saxovatpesha xalqimiz ko'magida juda ko'plab insonga yordam qo'lib ustaiyapti. Ammo ayrim kimsalarning buni siza'te'mol qilishi, ya'ni mablag'larni asossiz yo'naltirishi, qonunga zid maqsadlarda foydalanishi ham kuzatilmoqda. Ana shunday holatlarga chek qo'yish maqsadida sohaga yangi normalar joriy etildi.

Qonun bilan xayriya mablag'larini yig'ish va xayriya qutisi o'rnatish bo'yicha aniq qoidalar belgilandi. Xayriya mablag'laridan qonunga zid maqsadlarda foydalanilgan uchun jarima joriy etildi. Eng asosiysi, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga berilgan xayriya mablag'i soliqlardan ozod etilgan adolati bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati — xalqning erki, faolligi va tashabbusi asosida rivojlanadigan tizim. Yangi qonun Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy davomi bo'lib, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, demokratik qadriyatlarini mustahkamlash, NNTlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, ushbu qonun aholining "biz ham jarayonlarning faol ishtirokchisimiz" degan ishonchini mustahkamlaydi, jamiyatimizda ochiqlik, hamkorlik va adolat muhitini yanada taraqqiy ettiradi.



YANGI O'ZBEKISTON ALYORI

Koinot gultoji insondir azal*,
Qadri ham tojdagi gavhar misoli.
Bordir ruhimizga singgan bir masal,
Asra, asramasang, tutgay uvoli.
Muhabbat, oqibat katta boylik, do'st,
Qadrimiz bilaylik, qadrlaylik, do'st!

Qafasda sayramas bulbul degani,
Hech qachon chopolmas tushovlangan ot.
Bilamiz-ku, tili bog'liq kimsani,
So'zlashni istaydi erkin va ozod.
So'zlamog' erki bor, so'ylashaylik, do'st,
Kelgin, olam bilan bo'ylashaylik, do'st!

Uyda tayyorlansa tansiq bir taom,
Qo'shniga ilinmog' xo'b yaxshi odat.
Ikki dil do'stligi — Xudodan in'om,
Millatlar do'stligi — ulug' saodat.
Tinch kunlar qadri bilmog' kerak, do'st,
Ne'matlar shukrini qilmog' kerak, do'st!

Olamni mukammal yaratgan Tangrim,
Amallarni to'g'ri tortgay tarozi.
El-u yurt koriga kim bo'lsa qoim,
Xalq ham rozi bo'lgay, Xudo ham rozi.
Bilsang, bu tabarruk bir g'oyadir, do'st,
Baxt-u kamolingga kifoyadir, do'st!

Novda bilan ari uyasini buzma,
Ko'chat ek, gullagan bog'lar yaralsin.
Sozlarni sozlagin, torlarni uzma,
Eng go'zal rubobiy kuylar taralsin.
Yaxshidan yashnagan bog' qoladi, do'st,
Pok bo'lsak, bu jahon sog' qoladi, do'st!


Amir Sohibqiron Temurbek bobom,
Mangu adolatni aylagan shior.
Hazrat bobolarga munosib o'g'lon,
Adolat yo'lini tutgandir takror.
Shiddatu shaxdiga ko'z tegmasin, do'st,
Vatanning baxtiga ko'z tegmasin, do'st!

Neki bunyod bo'ldi, bordir me'mori,
Yangi imoratlar bu — yangi bayot.
Ko'ksimda ko'nglimning shonli izhori —
Betimsol shaharlar bo'lmoqda bunyod.
Bu yangi hayotdan ishoratdir, do'st,
Nurli kelajakdan bashoratdir, do'st

Uchinchi Renessans — Buyuk Uyg'onish,
Poydevori maktab, ma'rifat-irfon.
O'zbekiston — qadim yurtsan, shubhasiz,
Yangi O'zbekiston — yurtsan, navqiron.
Orzu-maqсадlarning cheki yo'qdir, do'st,
Ular sof, shu bois, ko'ngil to'qdir, do'st.

G'ayrat MAJID

*Abdulla Oripov satiri



YURT RAVNAQI YO'LIDA QILINGAN MEHNATNI QADRLAGANLAR KAM BO'LMAYDI



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Bu farmon davlatning o'z fidoyi siymolariga yuksak ehtiromi, ularning bebaho merosi oldidagi chuqur ta'zimining amaldagi ifodasi. Aslida, millatning buyukligi uning nafaqat bugungi yutuqlari, balki o'z o'tmishiga, tarixini yaratgan shaxslarga munosabati bilan ham o'lchanadi. Farmon shu jihatdan ham yangi O'zbekistonning o'z ma'naviy poydevorini nechog'liq mustahkam qurayotganini yaqqol namoyon etadi.

Buning zamirida xalqimizga xos azaliy qadriyat — o'tganlarni xotirlash, ezgu amallarini qadrlash tamoyili aks etgan. Zero, o'z tarixi, madaniyati va ilm-fani rivojiga hissa qo'shgan buyuk zotlarni unutgan millatning kelajagi ham bo'lmaydi. Bu yurtda qilingan har bir ezgu ish, har bir ijod namunasi, har bir ilmiy kashfiyot hech qachon e'tiborsiz qolmasligining yana bir yorqin isboti ham aynan shudir. Ota-bobolarimiz, ma'rifatparvar ajdodlarimiz azaldan ana shunday olibjanoq tamoyillar asosida yashab, ijod qilib kelgan.

Mazkur farmon, shuningdek, avlodlar o'rtasidagi uzviylik rishtalarini, ma'naviy vorisiylikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi bebaho qadamdur. U o'tmish va bugun o'rtasida mustahkam ko'prik vazifasini o'taydi. Bugungi yosh avlod ushbu ro'yxatdagi nomlarni o'qir ekan,

“Mazkur farmon — yoshlarimiz uchun o'ziga xos ma'naviy kompas. U “haqiqiy boylik va manguilik nimada?” degan savolga aniq javob beradi. Manguilik pul yoki mansabda emas, balki xalq uchun qoldirilgan yaxshi nom, ezgu ishlar va ma'naviy merosdadir. Ushbu ro'yxatdagi har bir inson o'z hayotini ana shunday ezgu maqsadga bag'ishlagan.

o'zlari turgan zamin qancha-qancha fidokor insonlarning mehnati va ijodi bilan gullab-yashnaganini yana bir bor chuqurroq his etadi. Bu esa ularning qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini jo'sh urdirib, o'zlariga ham shunday buyuk ajdodlarga munosib bo'lish mas'uliyatini yuklaydi.

Shu o'rinda ba'zilarining “Dunyodan o'tib ketgan insonlarga bu mukofotning endi nima zarurati bor?” deganini ham eshitamiz, ko'ramiz. Lekin bir o'yab ko'raylik, biz ularni chindan ham “vafot etdi”, deysizga haqlimizmi? Axir ular jisman oramizda bo'lmasa-da, boy ilmiy va ijodiy merosi bilan xalqimiz qalbida, millatimiz tafakkurida mangu barhayot emas-ku! Nomi tillardan, ijodi dillardan tushmay kelayotganining o'zi ularning tirikligidan dalolat bermaydimi? Ularning merosi kitoblarda qolgan shunchaki matnlar, muzeylardagi ashyolar yoki arxivlardagi hujjatlar emas, balki

bugunimizga singib ketgan, ongimiz va shuurimizni shakllantirgan tirik voqealidir.

Ular xuddi uzoq yulduzlar kabitdir: so'ngan bo'lsa-da, nuri bizga asrlar osha yetib kelaveradi va yo'limizni yoritib turadi.

Mana, bir eslang: To'ra Sulaymonning samimiyatiga yo'g'rilgan she'rleri asosida yaratilgan diltortar qo'shiqlarni eshitganimizda ruhimiz qanchalar orom topadi. Ma'murjon To'xtasinov tomonidan Bobur mirzo g'azaliga bastalangan “Yaxshilig”ni tinglaganimizda mijjamizga yosh qalqiyladi. To'y-hashamlarimizda Muhiddin Xoliqovning “Yig'lama qiz”



Adabiyotimizning zabardast vakillarini olaylik. Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf she'rleri nega hamon yoddan aytiladi? Chunki u xalqning yuragidagi gapni, oddiy inson tuyg'ularini sodda va samimiy ifodalay oldi. Uning uchun Vatani — eng tabarruk joy, muhabbat esa eng pok tuyg'u edi. Rauf Parfi esa butunlay boshqa olam. U “shoirlar shoiri” sifatida murakkab, falsafiy va isyonkor ruhdagi she'riyati bilan tafakkurimizni charxladi. Uning ijodi ruhiyatning tubsiz ummoniga sho'ng'ish, erk va ozodlik haqidagi mangu savollarga javob izlash demakdir.

kompozitor Anor Nazarovning musiqasi esa ko'plab kinofilmlar va spektakllarning shukuhini, ta'sirini oshirgan. Uning musiqasi asar qahramonlarining ichki kechinmalarini so'zsiz ifodalab berar, tomoshabin qalbiga kirib borardi.

Jadid bobolarimizning millat ozodligi yo'lidagi orzu-amonlari, fidoyiliklarini atoqli olim Begali Qosimovning ilmiy tadqiqotlarini o'qib, butun qalbimiz bilan his etmaganimizmi?! U hayotini jadidlik harakatini o'rganish, ma'rifatparvar ajdodlarimizning nomini oqlashga bag'ishlagan fidoyi olim edi. Domlarning kitoblari bizga o'zligimizni anglash, milliy ozodlik g'oyalarining ildizini teranroq tushunish imkonini berdi. Adabiyotshunos, tilshunos, taniqli arabshunos olim Alibek Rustamov esa mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy merosining buyuk bilimdoni sifatida tilshunosligimiz va adabiyotshunosligimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Ushbu farmondan e'tirof etilgan akademiklar — jarroh O'ktam Oripov, kibernetik olim Vosil Qobulov, geolog Ibrohim Hamroboev kabi o'nlab buyuklarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hisssasi bugungi taraqqiyotimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Akademik O'ktam Oripov yuzlab odamlarning hayotini saqlab qolgan tajribali jarrohga emas, balki mamlakatimizda jarrohlik maktabini yaratgan ustozlardan biri edi. Uning qo'lida tahsil olgan shogirdlar bugun ham eng murakkab operatsiyalarni muvaffaqiyatli o'tkazib, ustozlarining ezgu ishlarini davom ettirmoqda. Akademik Vosil Qobulov esa mamlakatimizda kibernetika fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan, bugungi raqamli texnologiyalar sohasining poydevorini qo'ygan buyuk olim edi. Uning o'sha davrdagi ilmiy qarashlari bugun nechog'liq to'g'ri va uzoqqa mo'ljallanganini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi globalashuv davrida, axborot xurujlari va “ommaviy madaniyat” tahdidlari kuchayib borayotgan bir paytda ushbu farmonning ahamiyati yanada ortadi. Chunki u milliy o'zligimizni asrash, ma'naviy immunitetimizni mustahkamlash yo'lidagi muhim va kerakli qadamdur. Xalqimiz aynan shunday ulug' siymolarning merosiga suyanib, o'zligini anglaydi, o'z yo'lini belgilaydi. Ularning ijodi va ilmiy jasorati biz uchun har qanday mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mustahkam ma'naviy qalqon vazifasini o'taydi. Davlatimiz rahbarining bu boradagi oqilona siyosati zamirida ham aynan ana shunday chuqur falsafa — ma'naviy ildizlarini mustahkamlash orqali millatning buyuk kelajagini ta'minlash g'oyasi mujassam.

Shunday ekan, bu ulug'larni oramizda yo'q deyishga ham ma'naiy haqqimiz oz deb o'ylayman. Bir ziyoli sifatida davlatimiz rahbarining ushbu farmonini chin dilidan qo'llab-quvvatlayman va buni tarixiy adolatning bayrami deb bilaman. Bu bir jihatdan, yosh avlodga ana shunday buyuklarning hayoti va ijodini qayta eslatish, ulardan o'mak olishga undash bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi O'zbekistonda inson, uning fidokorona mehnati va iste'dodi yuksak qadrlanishining yorqin timsolidir.

Mazkur farmon — yoshlarimiz uchun o'ziga xos ma'naviy kompas. U “haqiqiy boylik va manguilik nimada?” degan savolga aniq javob beradi. Manguilik pul yoki mansabda emas, balki xalq uchun qoldirilgan yaxshi nom, ezgu ishlar va ma'naviy merosdadir. Ushbu ro'yxatdagi har bir inson o'z hayotini ana shunday ezgu maqsadga bag'ishlagan.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MOUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
34930 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 00:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.